

Andijon davlat tibbiyot instituti harbiy kafedrası



Harbiy kafedra boshlig'i, t/x polkovnigi

Bekenov Abduxamid Abduxakimovich

Ish vaqti: 8.00–18.00.

Tel: +998 90 915 02 66

Harbiy kafedra tarixi va faoliyati

Andijon davlat tibbiyot instituti harbiy kafedrası, Andijon davlat tibbiyot institutining bazasida 1956 - yil tashkil etilgan va harbiy kafedra ish faoliyatini boshlagan.

Andijon davlat tibbiyot instituti harbiy kafedrasining birinchi boshlig'i etib 1956-1958 yillari tibbiy xizmat polkovnigi V. P. Xityuk tayinlangan.

Harbiy kafedrada 1958-1961 yillari, tibbiy xizmat polkovnigi I.M Moiseev o'quv bo'limi boshlig'ii etib, tibbiy xizmat polkovniklari V.A. Zaytsev V.S. Eletskiy va tibbiy xizmat podpolkovnigi M.A Azizov lar Mudofaa Vazirining buyrug'iga binoan katta o'qituvchi lavozimlariga tayinlanganlar.

1961- yil fevral oyidan 1967- yil sentyabr oyigacha harbiy kafedra ish faoliyatini to'xtatgan. Qurolli Kuchlarda o'tkazilgan qisqartirishlar munosabati bilan harbiy kafedra yopilgan. 1961yilgacha zahiradagi tibbiy xizmat ofitserlaridan 162 nafar talaba institutni bitirgan.

1967-yil 20-sentyabrda Mudofaa Vazirining № 221 sonli buyrug'iga asosan, institutda harbiy kafedra qaytadan tashkil qilingan.

Harbiy kafedraning rasmiy qaytadan ochilishi 1969 - yil 10-mart kuni bo'lgan. Harbiy kafedra Andijon shahridagi bozor ko'chasi, 12-uyda joylashgan.

1969 - yil 10-mart kuni Andijon davlat tibbiy institutida viloyat, institut rahbariyati va talabalar ishtirokida institut rektori Yu. A. Atabekov harbiy kafedraning tantanali ochilish marosimini e'lon qildi.

Harbiy kafedraning tantanali ochilish marosimida institutning o'quv ishlari bo'yicha prorektori dotsent U. G. Ganiev, davolash fakultet dekani dotsent A. R. Roziqov, dotsent M. S. Soatov, K. D. Jalolov va harbiy kafedra ofitserlari hamda 3 - kurs talabalari qatnashganlar.

Shu kuni davolash fakultetining 3 – kurs talabalari bilan umumharbiy tayyorgarlik bo'yicha mashg'ulotlar boshlandi.

Kafedrada o'quv jarayonini birinchi tashkilotchilari quyidagi ustozlardir:

Harbiy kafedra boshligi polkovnik M.A. Azizov.

Kafedra o'quv bo'limi boshlig'i polkovnik I.A. Zaytsev.

Umumharbiy tayyorgarlik fani o'qituvchisi polkovnik N.N. Talqikin.

Tibbiy xizmat taktikasi va tashkiloti fani o'qituvchisi kapitan S.X. Shamsutdinov

HARBIY KAFEDRANING BUGUNGI KUNDAGI FAOLIYATI

Hozirgi paytda harbiy kafedra Andijon shahridagi S.Alenda ko'chasi, 6 - uyda Andijon davlat tibbiyot instituti talabalar shaharchasi hududida joylashgan. Harbiy kafedra tasarrufida 3 ta kurs mavjud bo'lib, ular harbiy kafedra o'quv binosi va institut bazasida joylashgan.

Harbiy kafedrada davolash fakultetining 4-5 kurs talabalaridan 140 nafari taxsil olmoqda. Shulardan 126 nafari o'g'il bolalar va 14 nafari qiz bolalar.



Bundan tashqari, harbiy kafedrada taxsil olgan talabalarning 23 nafari Toshkent tibbiyot akademiyasi huzuridagi harbiy tibbiy fakultetga taxsil olmoqda.

Bundan tashqari, harbiy kafedrada “Fuqaro muhofazasi va fuqaro muhofazasi tibbiy xizmati” kursi ham joylashgan.

Harbiy kafedrada ofitser-o’qituvchilar o’z pedagogik mahoratlarini muntazam ravishda oshirib kelmoqda. Respublikamizda 2016 – 2017 - o’quv yilida o’tkazilgan “Eng ilg’or harbiy kafedra” tanlov ko’rigida harbiy kafedra, tibbiyot institutlari harbiy kafedralari orasida faxrli birinchi o’rin va boshqa oliy ta’lim muassasalari harbiy kafedralari o’rtasida sakkizinchi o’rinni egalladi.

Kafedrada o’qitilayotgan fanlar

BAKALAVRIAT

Umumharbiy tayyorgarlik fani - davolash fakultetining 4 – 5 - bosqich talabalari.

Qo’shinlarni tibbiy ta’minotini tashkil qilish asoslari fani – davolash fakultetining 4- 5 - bosqich talabalari.

Harbiy toksikologiya va tibbiy muhofaza fani - davolash fakultetining 5- bosqich talabalari.

Kafedra ofitser - o’qituvchilarining ro’yxati

№	F.I.Sh.	Ilmiy darajasi va lavozimi
1	Bekenov Abduxamid Abduxakimovich	Kafedra boshlig’i
2	Soliyev Anvar Alijonovich	Katta o’qituvchi – o’quv bo’limi boshlig’i
3	Soliyev Olimbek Obidovich	o’qituvchi
4	Razzaqov Bahodirjon	o’qituvchi
5	Sharipov Qobiljon Karimovich	o’qituvchi
6	Mamadaliev Avazbek	o’qituvchi

Kafedraning ilmiy yo’nalishlari:

Andijon davlat tibbiyot instituti Harbiy kafedrasida ishni tashkil qilish va mashg’ulotlar olib borish O’zbekiston Respublikasi Konsituttsiyasi, O’zbekiston

Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlangan «Harbiy xizmatni o'tash to'g'risida»gi Qonun, O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2008 - yil 5 - avgustdagi 12/230 raqamli «Oliy ta'lim muassasalarida rezerv va zahira ofiserlari tayyorlash to'g'risida»gi qo'shma Qarori va boshqa boshqaruv hujjatlari asosida olib boriladi.

O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirining 2008 - yil 30 - dekabrda 21/1/N-1537 sonli direktivasi asosida Andijon davlat tibbiyot instituti Harbiy kafedrasida shtati tasdiqlangan va Harbiy kafedra O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining quruqlikdagi qo'shinlar tarkibiga kiritilgan va Mudofaa vazirligining harbiy ta'lim boshqarmasi tasarrufida.



Harbiy kafedra O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari uchun zahiradagi va rezervdagi tibbiy xizmat ofiserlarini tayyorlash uchun mo'ljallangan.

Ish yuritish hujjatlari O'zbekiston Respublikasi Mudofaa Vazirining 2009 yil 130-sonli buyrug'i va O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi buyrug'i hamda ko'rsatmalari asosida yuritilmoqda. Harbiy kafedra Mudofaa vazirligi tomonidan buyruq va direktivalar bilan ta'minlangan. Xizmat doirasida foydalanish uchun maxsus va o'quv-metodik adabiyotlar ishlab chiqilgan. Talabalarning maxsus va o'quv-metodik adabiyotlardan foydalanishlari uchun kafedra kutubxonasida rus, o'zbek va lotin tilida tayyorlangan adabiyotlar mavjud. Hozirgi vaqtda «Harbiy toksikologiya va tibbiy muhofaza» va «Qo'shinlarning tibbiy ta'minlanishini tashkil qilish asoslari» fanlaridan lotin tilida o'quv qo'llanmasi tayyorlanmoqda.

Harbiy kafedrada O'zbekiston Respublikasi O'rolli Kuchlari uchun «Zahiradagi tibbiy xizmat ofiserlari» tayyorlanadi. O'quv jarayoni O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan 2009 - yil 21-noyabrda tasdiqlangan «Tibbiyot institutlari uchun zahiradagi tibbiy xizmat ofiserlarni tayyorlash namunaviy dasturi» asosida olib boriladi. Namunaviy dastur asosida harbiy kafedrada ishchi dasturlar har bir o'quv yili uchun alohida tayyorlangan.

Ishchi dasturga asosan, harbiy tayyorgarlik uchun 320 soat ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar uchun vaqt ajratilgan. Bundan tashqari 144 soat dala o'quv mashg'ulotlari uchun ajratilgan.

Ishchi dasturlardagi mavzular bo'yicha to'liq uslubiy qo'llanmalar tayyorlangan. Kafedra ishchi dasturlari institut o'quv ishlari bo'yicha prorektori tomonidan tasdiqlangan bo'lib, ishchi dasturlardagi mavzular bo'yicha tayyorlangan uslubiy qo'llanmalar tarkibida o'qitishning ilg'or innovatsion texnologiyalari, talabalarning bilimni baholashning 100 balli reyting tizimi bilan bir qatorda O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi qo'shinlarida qo'llanilayotgan ilg'or harbiy tayyorgarlik tajribalari ham kiritilgan.

Kafedramizda har bir fan bo'yicha seksiyalar faoliyat ko'rsatadi. Har bir seksiyada «Ustoz-shogird» tizimi yaxshi yo'lga qo'yilgan. Bunda malakali o'qituvchilar o'zlarining ko'p yillik tajribalarini yosh mutaxassislarga o'rgatish, darslarini nazorat qilish, bevosita dars jarayonlarini tahlil qilish va metodik-didaktik maslahatlar berish orqali oshirib kelmoqdalar. Yangi pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish, ixtisoslikka oid tezis va maqolalarini yozishni o'rgatish ham shular jumlasidandir.

Kafedra kutubxonalarida 100dan ortiq adabiyotlar, 10 dan ziyod elektron darsliklar, ma'ruza-taqdimotlar, o'quv filmlar mavjud. Hamma amaliy mashg'ulotlar bo'yicha metodik qo'llanmalar mavjud. Fanlar bo'yicha o'quv-uslubiy majmua 3 ta tilda yaratilgan va yangilanib borilmoqda.



Bugungi kunda zamonaviy ta'lim talablaridan kelib chiqib, kafedrada o'qitiladigan fanlarning samaradorligini oshirishda ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanilmoqda.

Ta'limning bugungi vazifasi talabalarni kun sayin oshib borayotgan axborot-ta'lim muhiti sharoitida mustaqil ravishda faoliyat ko'rsata olishga, axborot oqimidan oqilona foydalanishga o'rgatishdan iboratdir. Shu sababli talabalarga mashg'ulotlar jarayonida mustaqil ishlash va fikrlash uchun imkoniyatlar va sharoitlar yaratib berilmoqda.

Kafedrada faoliyat olib borayotgan 6 nafar pedagoglar o'quv mashg'ulotlarini yuqori saviyada tashkil qilishga harakat qilib, zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan unumli foydalanmoqdalar.

Pedagoglarimiz o'z amaliy faoliyatlarida "Nega o'qitamiz? Nimani o'qitamiz? Qanday o'qitamiz?" savollariga javob izlab har bir darsning mazmunini boyitishga intiladilar. Jumladan, fanlarni o'qitishda (ingliz tilida) talabani so'z boyligini oshirish, insoniy munosabatlarda ularni qo'llay olish ko'nikmasini shakllantirish uchun "Bo'sh xalqa", "Klaster", "Sinkveyn", "Baliq skeleti", "qor parcha" texnologiyalaridan foydalangan holda tashkil qilinmoqda. Bu noan'anaviy usullar asosida talabalar mustaqil holda mazmunli matnlar tuzib, dialogik xarakterdagi suhbatlar o'tkazish ko'nikmasini shakllantirmoqda.

O'quv-tarbiya jarayonida pedagogik texnologiyalarni joriy etilishida talabalarning yosh xususiyatlari, bilimga bo'lgan iqtidori va o'zlashtirishlari inobatga olinmoqda. Chunki talaba-yoshlar qo'yilayotgan muammolarga to'g'ri yondashib, munosabat bildira olishlari, fikrlarini asoslay olish malakalarini tarbiyalash - har bir pedagogning muhim vazifalaridan hisoblanadi.